

## O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SALOHIYATINI OSHIRISH VA ILMIY-INNOVATSION KLASTERLAR RIVOJLANTIRISH

**Rayimjanova Gulnoza Xolmatovna**

*Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi*

*Farg'ona filiali o'qituvchisi, [gulnoza13081983@xmail.ru](mailto:gulnoza13081983@xmail.ru)*

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan muhim investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish bo'yicha ko'rila yotgan choralar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyi halarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobjiy natijaga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev faol investitsiya siyosati olib borish masalasini ustuvor yo'nalish sifatida belgililar ekanlar, "Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim. Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyatlar yaratish kerak ekanligini ta'kidlab ko'rsatdilar.

Oxirgi ikki-uch yilda ilmiy soha samaradorligini oshirish va tadqiqot va ishlanmalar natijalarini iqtisodiyot va jamiyat tomonidan talab qilingan intellektual mahsulotga aylantirish maqsadida tayyorlangan qator strategik va loyi haviy hujjatlar respublikada ilmiy-innovatsion faoliyatni va texnologik platforma g'oyasini tashkil qilishning klasterli tamoyilini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Zamonaviy ilmiy-texnologik va innovatsion jarayonni tashkil qilishning samarali vositasi sifatida xronologik jihatdan birinchisi tarmoq tamoyili bo'yicha idoralararo va fanlararo kooperatsiyaning egiluvchan shakllaridan biri bo'lgan klasterlar taklif qilindi.

Shu bilan bir vaqtida har ikki shakllarni amaliyotga joriy etish "modelli" tasavvurlardan kuchli farqlanadi va shu nuqtai nazaridan ilmiyinnovatsion klasterlar va texnologik platformalar hali bir-biriga nisbatan noaniq mavqeda turgan mustaqil alohida hisoblangan vositalar hisoblanadi. Bugungi kunda qulay bo'lgan tadqiqot natijalari "model" klasterlari va ularni qo'llab-quvvatlash hukumat choralar qanday bo'lishi kerakligi haqidagi savolga turlicha javob beradi. Hatto klaster tushunchasining o'zi juda turli-tuman. Bunda klasterlarni mutlaqo turlicha bo'lgan innovatsion tizimlardan to qo'shilgan qiymat yaratish zanjiriga qadar shakllantirish ko'zda tutiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan klaster deganda hududiy mahalliy lashtirilgan yuridik shaxslar hamda shartnoma asosida o'zaro ta'sirlashuvchi va qo'shilgan qiymatlar

yaratish jarayonida qatnashuvchi yakka tadbirkorlarning majmui tushuniladi. Klaster tashabbuskorligi deganda tashkilotning (yakka tadbirkorlarning hujjatli tasdiqlangan ma'lum hududda klasterni shakllantirishda ko'maklashish va uning ishtirokchisi bo'lib chiqish maqsadi tushuniladi. Innovatsion sanoat klasteri - bu ishtirokchilari innovatsion va yuqori texnologiyali (ilmiy hajmdor) mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan innovatsion faoliyatni ta'minlaydigan va amalga oshiradigan tuzilmadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, "klaster" iqtisodiy tushunchasining muallifi Garvard biznes maktabining professori Maykl Porter hisoblanadi. Olim uni geografik tamoyil bo'yicha jamlangan o'zaro bog'liq kompaniyalar guruhi, ixtisoslashgan etkazib beruvchilar (shu jumladan, xizmatlar), tegishli tarmoqlar firmalari va boshqa tashkilotlari (masalan, universitetlar, standartlashtirish agentliklari hamda savdo birlashmalari) sifatida tasavvur qilgan bo'lib, ular ma'lum sohalarda o'zaro raqobatlashadilar, ammo shu bilan bir qatorda, birgalikda ish ham olib boradilar. M.Porterning fikricha, hozirgi vaqtida raqobatbardoshroq tarmoqlar klaster tamoyili bo'yicha rivojlanmokda, klasterlarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlash esa umuman, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi.

«The Cluster Initiative GreenBook» tadqiqotlari mualliflari tomonidan o'tkazilgan dunyoning turli mintaqalaridagi 200 ta klaster tashabbuslarini maxsus o'rghanish natijalari ko'rsatishicha, innovatsion faoliyat va texnologiyalarni tarqatish klasterlarni tuzish va faoliyatining muhim maqsadlaridan biridir. Uni o'rganilgan klaster tashabbuslarining 75%ni amalga oshirdi. Bu hududiy klasterlashtirish xo'jalik sub'ektlarining innovatsion faolligini oshirishga olib kelishi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

Texnologik platformalarni tashkil qilishning muhim maqsadi odatda yuqori texnologik ukladlar ilmiy sig'imli texnologiyalari ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish uchun istiqbolli soha sifatida belgilanadi. Platforma asosiy qatnashchilari hamkorligini rivojlantirish va manfaatlarini kelishtirish bu vositasining o'zi moliyaviy emas, balki kommunikatsion (davlat, fan va biznes o'rtasida) tarzda joylashtiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2014 yilda tayyorlangan "Innovatsion taraqqiyot konsepsiysi" da texnologik platformalarni davlat, fan va biznesning innovatsion rivojlanish bo'yicha sa'yi-harakatlarini muvofiqlashtirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilib, uning doirasida tegishli tarmoq (yo'nalish) ni istiqbolda rivojlantirishga umumiy qarashlarni ishlab chiqadi, zaruriy harakatlar strategiyasini shakllantiradi va amalga oshiradi. Bu erda texnologik platforma "istiqbolli texnologiyalar, yangi mahsulotlarni yaratish, barcha manfaatdor tomonlar ishtiroki asosida tadqiqotlar va ishlanmalarni olib borish uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilish hamda ilmiy-texnologik va innovatsion rivojlanish sohasida me'yoriy-huquqiy asosni takomillashtirishga qaratilgan kommunikatsiya vositalarini" o'zida mujassamlashtiradi.

Bunday yondashuv deyarli rivojlangan Evropa mamlakatlari va Rossiyadagi kabi yondashuv hisoblanadi. Texnologik platformalarni shakllantirish va ishlashining standart algoritmi Evropa tajribasi ko'rsatishicha, uch asosiy bosqichni mujassamlashtiradi. Birinchi bosqichda ilmiy-texnologik rivojlanishning strategik ustuvor yo'naliishlari belgilanib, haqiqatda platforma mavzusini beradi; ikkinchisida "yo'l xaritalari" yaratiladi, uchinchisida loyihalarini, shu jumladan, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish yuz berib, ular turli manbalardan moliyalashtiriladi. Respublikada uchinchi bosqich endigina boshlanmoqda. Bu texnologik platformalar amal qilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar va moliyaviy sharoitlarni kelishtirish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon ishtirokchilar tarkibidan kelib chiqib, turli sheriklik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday aloqalarning uch turi ajratiladi: ilmiy muassasalar va universitetlar, oo'yulari va sanoat korxonalari o'rtaida turli sanoat korxonalari o'rtaida (1-jadval).

### 1-jadval.

### Alohida Yevropa mamlakatlari texnologik platformalarida tarmoq aloqalari<sup>23</sup>

Tarmoq aloqalarining turlari	Mamlakatlар
Ichki ilmiy aloqalar (bigalikdagi tadqiqot markazlari va loyihalarini ilmiy ustunlik markazlarini xarakatlantirish)	Belgiya, Ispaniya, Norvegiya, Fransiya, Shveytsariya
"Fan- sanoat" aloqasi (davlat-xususiy sherikligining xarakatlanishi)	Belgiya, Germaniya , Daniya, Italiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Finlandiya, Fransiya
Sanoat ichki aloqalari (tarmoq tizimlarini siljитish)	Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Turkiya, Finlandiya, Chexiya, Estoniya

Shuni ta'kidlash kerakki, xo'jalik sub'ektlarini klaster rivojlantirish uchun sheriklik munosabatlarining uch turi mavjud bo'lishi kerak: ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, iste'molchilar hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – ilmiy muassasalar, moliyaviy institutlar, venchur kompaniyalar o'rtaida. Texnologik platformalar faoliyati doirasida milliy va jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlarga innovatsion mablag'larni tijoratlashtirish nuqtai nazaridan istiqbolli ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirishni ta'minlash kerak.

Texnologik platformalarning asosiy vazifalaridan biri - raqobatgacha bo'lgan bosqichda, shu jumladan, shakllantiriladigan texnologik prognozlash doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

<sup>23</sup> Jahongirov I.J. Milliy iqtisodiyotni innovatsion – investitsion rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2019y. -35b.

- texnologiyalar paketini, shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish texnologiyalari, milliy iqtisodiyot sohalarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini aniqlash;
- fundamental va amaliy muammolarni tadqiq etishning mavzuli sohalarini aniqlash bo‘lib, ularning echimi texnologiyalar mos keluvchi paketlarini shakllantirish uchun zarurdir;
- tadqiqotlar olib borish zaruriy resurs ta’mintini hamda kadrlar kompetensiyasiga va infratuzilma qarorlariga talablarni baholash.

Masalan, respublikada ITTKIni bajarishni moliyalashtirishga ular tomonidan belgilangan ustuvorliklarga mos va texnologik platformalar ekspertizasidan o‘tgan loyihalar doirasida imtiyozli kreditlar taqdim etishni ta’minlaydi. Aloqalarni rag‘batlantirishning mazkur vositasi bizning mamlakatimiz uchun ham juda dolzarbdir. U xalqaro taqqoslashlar ko‘rsatishicha, birinchi navbatda, aynan fan va biznes o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli darajada ortda qoldi. Xorijiy va milliy adabiyotlarda ancha ko‘plab tadqiqotlar texnologik platformalarga qaraganda ko‘proq ilmiy-innovatsion klasterlarga bag‘ishlangan. Shu sababli tabiiy yo‘l bilan ham, tegishli davlat yoki mintaqaviy siyosat olib borish orqali ham ancha ilgari shakllana boshladi!

Shunday qilib, tadqiqotchilar klasterlarni o‘ziga xos iqtisodiy hodisa sifatida ham, tashqi ta’sir ko‘rsatish chorralari natijasi sifatida ham (masalan, davlat tomonidan rag‘batlar) o‘rgandilar va o‘rganmoqdalar. Agar shu singari tarkibiy tuzilmalar tashqi tashabbus bilan yaratilsa, qarorni o‘tkazishga tayyor biznesni afzal ko‘rishlarini hisobga olib, davlat va xususiy odatda ularning ustuvorliklari, maqsadi va vazifalari tuzish tashabbuskorlarining o‘zları tomonidan beriladi. Bozor birlashtiruvchi kuchlari ta’siri natijasida paydo bo‘lgan klasterlar tabiiy shakllantirilgan hisoblanadi. Mazkur vaziyatda davlat odatda ularni rivojlantirishning yumshoq tartibga soluvchilik vazifasini bajaradi.

Evropa va AQSHda tabiiy yo‘l bilan vujudga kelgan klasterlar eng muvaffaqiyatlari klasterlar hisoblanadi. Qo‘shma Shtatlarda federal darajada klaster siyosatining vujudga kelishini tahlilchilar ko‘proq Amerika hukumatining 2008-2009 yillardagi jahon iqtisodiy inqiroziga munosabati bilan bog‘lamoqdalar. AQSHdan farq qilib Evropa mamlakatlarida mazkur siyosatga avvalroq etarli darajada katta e’tibor qaratdilar. 1980-yillardan boshlab, innovatsion taraqqiyot strategiyasi faol ishlab chiqilib, ular yangi klasterlarni tuzishni rag‘batlantirish choratadbirlarini o‘z ichiga oldi. O‘tgan yillar davomida mazkur sohada katta miqdordagi muvaffaqiyatlari amaliyot to‘plandi, bunday tuzilmalar samaradorligi esa iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida amaliy e’tirofini topdi. Bu esa muvaffaqiyatlari klasterlashtirishga olib keladigan omillarni tasniflash va o‘z ishtirokchilariga beradigan ustunliklarni baholash imkonini berdi.

Bunday ustunliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turli resurslardan foydalanish imkoniyati;

- aloqalar (shu jumladan, gorizontal) qulayligi;
- tadqiqotlar va ishlanmalar autsorsingining turli-tuman shakllari;
- tadbirkorlik madaniyati darajasi sifatida o‘zaro ishonchning oshishi,
- yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni yaratish zanjiri va tarmog‘i.

Tashqi tashabbus bilan hosil qilinadigan muvaffaqiyatli klasterlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan omillar orasida quyidagilarni qayd etish joiz:

- muayyan klasterni rivojlantirishdan mahalliy hokimiyatning manfaatdorligi,
- tashkil qilish zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi;
- mahalliy firmalar bilan ishlashi mumkin bo‘lgan ilmiy laboratoriylar yoki universitetlar:

  - kichik va o‘rta korxonalar hamda ilmiy muassasalar o‘rtasida axborot ayrboshlash;
  - mahalliy muhitda tadbirkorlik, biznesning ishtiroki;
  - malakali kadrlar va bandlik sohalari harakatchanligi tufayli ular o‘rtasidagi kuchli aloqalar bilan ta’milanganlik;
  - moliyaviy resurslar, shu jumladan, venchur investitsiyalarning turlitumanligi;
  - mintaqaviy etakchi kompaniyalarning mavjudligi;
  - firmalararo kooperatsiyaning rivojlanganligi;
  - mahalliy hokimiyat tarkibiy-sanoat siyosatining puxtaligi;
  - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish an’analari va tarixiy sharoitlari.

Avstraliya olimi Mark Vikxem tadqiqotlariga ko‘ra, davlat tadbirkorlik, geografik va tarixiy jihatlarini hisobga olib, klaster ehtiyojlariga o‘z vaqtida moslashgan, klasterlashtirish asosiy omillarining rolini kuchaytirishga layoqatli bo‘lgan, uning hayotiy sikli turli bosqichlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan; zaruriy infratuzilmani taqdim qilib, bunda biznes yo‘nalishlarini kuzatish emas, balki tadbirkorlik tuzilmalari ehtiyojlarini oldindan ko‘rgan, etakchifirmalar, klaster negizini qo‘llab-quvvatlashga urg‘u bergen hollarda klasterlar shakllanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyati ta’milanadi. Bunda davlat ta’minot xavfsizligini ta’minalashi, etakchi atrofida yangi etkazib beruvchilar va xaridorlarning paydo bo‘lishiga hamda yangi etakchi-firmalarning hosil bo‘lishiga ko‘maklashishi zarur. Qo‘llab-quvvatlashdan asosiy maqsad innovatsion taraqqiyot deb e’lon qilingan hamda shu sababli oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalarni ularga faol jalb qilish rag‘batlantirilishi kerak.

Shunday qilib, mazkur tuzilmalarga murojaat qilish zarurati ilmiyinnovatsion klasterlar va texnoparklar samaradorligini oshirishi lozim. Klasterlar va texnologik platformalarni rivojlantirishning xorijiy tajribasini umumlashtirib va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kelajakda mazkur tarmoq vositalari samaradorligini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini belgilash mumkin. Klasterlar uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydigan o‘ziga xos “ekspertlar jamoasi sifatida texnoparklarning kiritilishi samaralidir.

Shunday qilib, ilmiy-innovatsion klasterlar va texnoparklarning samarali faoliyatini ta'minlash uchun davlatning tizimli va kompleks yondashuvi, infratuzilma, ilm-fan va biznes hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 56 b
2. Jahongirov I.J. Milliy iqtisodiyotni innovatsion – investitsion rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2019y. -35b.
3. Райимджанова, Г. Х. (2024). Оценка эффективности управления кластеризацией агропромышленных комплексов. Science and innovation, 3(Special Issue 21), 994-997.
4. Райимджанова, Г. Х. (2022). Методологические основы развития цифровой экономики в Республике Узбекистан. Academic research in modern science, 1(10), 45-51.
5. Rayimdjanova, G. H. (2022). Issues of the development of creation of chains of added value in agricultural production. Models and methods in modern science, 1(10), 9-17.
6. Rayimdjanova, G. H. (2022). Cluster—A New Opportunity and Effectiveness. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 5, 105-107.
7. Райимджанова, Г. (2021). Ways for further development of the agrarian sector. EurasianUnionScientists, 3(3 (84)), 21-23.
8. Nasridinovna, T., & Mirzabahrom, M. (2024). Innovative Reforms and Economic Strategies in the Development of Domestic Tourism in Uzbekistan. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 3(4), 10-17.
9. Teshabaeva, O. N., & qizi Muhammadjonova, N. M. (2023). Innovatsion tadbirdorlik faoliyatini boshqarish va takomillashtirish yo'naliishlari. Results of National Scientific Research International Journal, 2(5), 154-166.
10. Тешабаева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). Ўзбекистон республикасида аграр секторда тадбиркорлик ривожланишининг ўзига хос жиҳатлари. Academic research in educational sciences, 4(1), 22-30.
11. Teshabaeva, O. N. (2023). Analysis of industrial policy and investment processes in the production and enterprises of innovative products in the economy of Uzbekistan. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(3), 48-58.
12. Teshabaeva, O., & Karimova, M. (2023). O'zbekiston iqtisodiyotini investitsiyalash jarayonlari, uning rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlari. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 93-100.